XALQ DEPUTATLARI CHINOZ TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 21 - fevral VI-43-13-10-144-K/22 Chinoz tuman hokimligi

Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi VI-41-1-10-144-K/22-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 412-moddasiga asosan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida ko‘chmas mulk bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarining 1 kv.metri uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatidan past bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq qishloq joylarda keskin oshib ketishini oldini olish maqsadida, **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan minimal qiymatga tumanlarning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, 0.5 gacha kamaytiruvchi koeffitsiyent kiritishi mumkinligi nazarda tutilgan.**

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 429 va 437-moddalarida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash nazarda tutilgan.

Shunga ko‘ra, **Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari** Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yer solig‘i stavkasiga **0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi ko‘zda tutilgan.

O‘z navbatida, **tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlariga** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga *(yuridik va jismoniy shaxslarning)* qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun **0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi** koeffitsientlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida kiritish huquqiga ega.

O‘tkan bir oy davomida tuman hokimligi mutasaddilari tomonidan o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarga asosan hududlar uchun belgilangan soliq stavkalari o‘tkan yilga nisbatan keskin oshib ketayotkanligini ko‘rish mumkin va buni oldini olish bo‘yicha tegishli takliflar taqdim qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi

Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 24 yanvardagi 06/04-02-02-32/203-sonli (XDFU) xatiga, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi VI-46-22-10-0-K/22-son qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Chinoz tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-1-10-144-K/22-sonli qaroriga tegishli o‘zgartirishlar kiritish maqsadida, Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2022-yil 7-fevraldagi VI-46-22-10-0-K/22-son qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun tumanda belgilangan yer solig‘i stavkalari bo‘yicha berilgan takliflar ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari Chinoz tuman Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Chinoz tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-1-10-144-K/22-sonli qaroriga ilovaga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Chinoz tumani hokimining birinchi o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Alimbekov**

Халқ депутатлари Чиноз туман
Кенгашининг
2022 йил 21 февралдаги
VI-43-13-10-144-К/22-сон қарорига
1-илова

Xalq deputatlari Chinoz tuman Kengashining 2022-yil 8-yanvardagi “Chinoz tumanining 2022-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-41-1-10-144-K/22-sonli qarorining 4 va 7-ilovalariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. Qarorning 4-ilovasi quyidagicha taxrir etilsin:

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman yer solig‘i stavkalari uchun 2022-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (so‘mda)
	Chinoz tumani	**0,80**	**23 625,60**	**0,80**	**216**
1	Oydin	1,00	23 625,60	0,93	200,88
2	Yangi hayot	1,00	23 625,60	0,93	200,88
3	Kattatepalik	1,00	23 625,60	0,93	200,88
4	Gulzorobod	1,00	23 625,60	0,93	200,88
5	Yo‘ltushgan	1,00	23 625,60	0,93	200,88
6	Dexqonobod	1,00	23 625,60	0,93	200,88
7	Yollama	1,00	23 625,60	0,93	200,88
8	Qir	1,00	23 625,60	0,93	200,88
9	Soxibkor	1,00	23 625,60	0,93	200,88
10	Ochamayli	1,00	23 625,60	0,93	200,88
11	Chin-Maschit	1,00	23 625,60	0,93	200,88
12	Alisher Navoiy	1,30	30 713,28	1,30	280,80
13	Xo‘ja	1,30	30 713,28	1,30	280,80
14	Tillatopgan	1,00	23 625,60	0,93	200,88
15	Do‘stlik	0,94	22 208,06	0,75	162,00
16	Istiqlol	0,94	22 208,06	0,75	162,00
17	Usmon Nosir	0,94	22 208,06	0,75	162,00
18	Yaxshi niyat	0,94	22 208,06	0,75	162,00
19	Axillik	0,94	22 208,06	0,75	162,00
20	Navro‘z	0,94	22 208,06	0,75	162,00
21	Amir Temur	0,94	22 208,06	0,75	162,00
22	Tinchlik	1,30	30 713,28	1,30	280,80
23	Yangi mahalla	1,20	28 350,72	1,20	259,20
24	Bunyodkor	1,30	30 713,28	1,30	280,80

25	Besh kapa	1,30	30 713,28	1,30	280,80
26	Yangiobod	1,20	28 350,72	1,20	259,20
27	Madaniyat	0,94	22 208,06	0,75	162,00
28	G‘ayrat	0,94	22 208,06	0,75	162,00
29	Tong yulduzi	0,94	22 208,06	0,75	162,00
30	Samarqand	0,94	22 208,06	0,75	162,00
31	Extirom	1,00	23 625,60	0,93	200,88
32	Ko‘tarma	1,00	23 625,60	0,93	200,88
33	Islomobod	1,00	23 625,60	0,93	200,88
34	Ulug‘vor	1,00	23 625,60	0,93	200,88
35	Eshonobod	0,94	22 208,06	0,75	162,00
36	Kanalobod	0,94	22 208,06	0,75	162,00
37	Xamza	1,30	30 713,28	1,30	280,80
38	Paxtaobod	1,20	28 350,72	1,20	259,20
39	Yoshlik	1,20	28 350,72	1,20	259,20
40	Nafis	1,00	23 625,60	0,93	200,88
41	Mevazor	1,00	23 625,60	0,93	200,88
42	Rasulobod	1,00	23 625,60	0,93	200,88
43	Bog‘bon	1,00	23 625,60	0,93	200,88
44	Chorvador	1,00	23 625,60	0,93	200,88
45	Birlik	0,94	22 208,06	0,75	162,00
46	Sutchilar	1,00	23 625,60	0,93	200,88
47	Sut-buloq	0,94	22 208,06	0,75	162,00
48	Markaziy	1,00	23 625,60	0,93	200,88
49	Obixayot	1,00	23 625,60	0,93	200,88
50	Qozi	1,30	30 713,28	1,30	280,80
51	Sarbozor	1,30	30 713,28	1,30	280,80
52	Afg‘on	1,30	30 713,28	1,30	280,80
53	Tillaobod	0,94	22 208,06	0,75	162,00
54	Humo	1,00	23 625,60	0,93	200,88
55	Yovvosh	1,00	23 625,60	0,93	200,88

2. Qarorning 7-ilovasi quyidagicha taxrir etilsin:

“Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari”

T/r	**Tuman nomi**	**Koeffitsiyent (mutloq miqdor)**	**Belgilangan qiymat (so‘m)**
1	Chinoz tumani	0,80	800 000,0